

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

3-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

O'zbekistonda nomoddiy madaniy meros muhofazasi.....	332
<b>U.N.Olimov</b>	
Arab tarixshunosligida XIX asr oxirida Markaziy Osiyodagi siyosiy jarayonlar va Rossiya imperiyasi bosqinining o'rganilishi .....	336
<b>M.Q.Tolibboev</b>	
O'zbekiston hududida mahallaga xos ilk belgilarning paydo bo'lishi va boshqaruv an'analariga doir mulohazalar .....	340
<b>X.S.Jumanazarov</b>	
Xalq tabobatida davolash usullarining mintaqaviy xususiyatlari.....	346
<b>Sh.N.Jo'rayev</b>	
Sulton Husayn Boyqaro davrida diniy ulamolarning o'rni.....	351
<b>O.M.Normatov</b>	
O'zbekistonda o'tkazilgan rayonlashtirish natijalari.....	356
<b>D.G'.Mirzayev</b>	
"Turkiston viloyatining gazetasি" da Qo'qon xonligining bosib olinishiga oid ma'lumotlar tahlili .....	361
<b>A.O.Tairov</b>	
Anushteginiylar sulolasi davrida ijtimoiy hayot.....	369
<b>P.A.Nabihev</b>	
"Farg'on'a vodiysi tojiklarining farzand tug'ilishi va to'y marosimlari bilan bog'liq bo'lgan urf-odat va an'analari (Qorategin tojiklari misolida)" .....	373
<b>A.A.Mamadjanov</b>	
Muhammad Vafo Karmanagiy – Buxoro amirligi tarixchilik mакtabining ilk vakili.....	378
<b>P.A.Arslonzoda</b>	
Tasвири макотиб ва мадориси аморати бухоро дар "Ёддоштҳо"-и Садриддин Айнӣ .....	382

#### ADABIYOTSHUNOSLIK

<b>A.A.Kasimov, Sh.G'.Akbarova</b>	
Badiiy retsepsiyaning nazariy asoslariga doir .....	389
<b>Z.J.Pardayeva</b>	
Dostoevskiy, Baxtin, Polifonik roman .....	393
<b>H.Jo'rayev</b>	
Totem tushunchalarning ijtimoiy tafakkur tarixidagi o'rni.....	401
<b>K.A.Jamahmatov</b>	
Adabiy manbalarda Arshiy Termiziyning hayoti va ijodiy faoliyatining tadqiqi .....	404
<b>X.Jo'rayev, M.Ismoilova</b>	
Ijtimoiy tafakkurning majoziy ifodasi .....	410
<b>I.I.Rustamova</b>	
Dramada sahnada ko'rinnmaydigan qahramon va uning badiiy talqini .....	413
<b>M.A.Jo'rayeva</b>	
Jadid adabiyotida safarnoma janri va uning taraqqiyoti .....	417
<b>M.Islomova</b>	
Taqlid va Tasvir .....	421
<b>D.G'.Gafurova, A.A.Qayumov</b>	
Isajon Sulton hikoyalarida shamol timsoli .....	424
<b>X.T.Mirzaev</b>	
Talқини рукнҳои арӯзӣ дар рисолаи "Меъроҷ-ул-арӯз"-и Муҳаммад Ғиёсиддин .....	428
<b>N.Q.Bo'riyeva</b>	
J.R.R.Tolkinning "Uzuklar hukmdori" asarida yaxshilik kontsepti.....	433
<b>M.Sh.Dehqonova</b>	
Mustaqillik davri dramaturgiyasi va adabiy tanqid.....	440
<b>G.A.Mashrapova</b>	
Ertak syujet tiplarida qidiruvga qarshi safar (antiqidiruv) motivi turlari.....	445
<b>Q.V.Yo'lichiyev</b>	
Abdulla Sherning "Ikki ayol haqida qo'shiq" she'ri tahlili .....	449
<b>B.N.Isakova</b>	
Adabiyotda badiiy va mushtarak tarjimaning ahamiyati .....	456



UO'K 900.286(124:188)

**XALQ TABOBATIDA DAVOLASH USULLARINING MINTAQAVIY XUSUSIYATLARI****РЕГИОНАЛЬНАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА МЕТОДОВ ЛЕЧЕНИИ В НАРОДНОЙ МЕДИЦИНЫ****REGIONAL CHARACTERISTICS OF TREATMENT METHODS IN TRADITIONAL MEDICINE****Jumanazarov Xurshid Sirojiddinovich** 

O'zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix instituti katta ilmiy xodimi, Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada XIX asr oxiri va XX asr boshida Turkiston o'lkasida xalq tabobati an'analarining davolash usullariga ta'sir qilgan mintaqaviy xususiyatlari tahlil qilingan. Mintaqaviy xususiyatlarda o'lkaga xos kasalliklar va ularni davolashning mahalliy usullari, tabiblarning sohalar bo'yicha ixtisoslashuvi hamda ixtisosliklar doirasida amal qilinadigan qoidalar, tekislik va tog'-tog' yonbag'rida istiqomat qiluvchi aholining tibbiy qarashlari muhim ahamiyat kasb etgan. Shuningdek, chorvador va dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi aholining kasbiy jihozlari hamda yetishtirgan mahsulotlarining tibbiy xususiyatlarini anglashi ham mintaqaviy jihatlarga ta'sir etgani tadqiq qilingan. Bundan tashqari, yuqumli kasalliklarni bartaraf qilishda chilla saqlash qoidalarining o'ziga xosligi ham ochib berilgan.

**Аннотация**

В данной статье анализируется характеристика влияний региональных особенностей методам традиционных лечений народной медицины Туркестанского края в конце XIX и начало XX века. Имели важное значение в локальном характере особенные заболевания края, местные методы их лечений, специализация врачей по сферу, действующие правила вокруг сферы и медицинское мировоззрение населения проживающих в предгорной местности и равнине. А также, исследовано влияние региональных особенностей профессиональных утварей населения занимающихся скотоводством и земледелием и сознание лекарственных качеств производственных продуктов. Кроме этого, раскрыты особенности правил соблюдения чилла в предотвращение инфекционных заболеваний.

**Abstract**

This article analyzes the characteristics of the influences of regional features on the methods of traditional treatments in folk medicine of the Turkestan region at the end of the 19th and beginning of the 20th centuries. Of local importance were the special diseases of the region, local methods of treating them, the specialization of doctors by area, the rules in force around the area and the medical worldview of the populations living in the foothills and plains. And also, the influence of regional characteristics of professional utensils of populations engaged in cattle breeding and agriculture and the awareness of the medicinal qualities of industrial products were studied. In addition, the features of the rules for observing chill in the prevention of infectious diseases are revealed.

**Kalit so'zlar:** tabib, dehqon, chorvador, giyoh, musiqa, rishta, ilgir.**Ключевые слова:** лекар, земледелец, скотовод, расление, музыка, ришита, илгир.**Key words:** doctor, farmer, cattle breeder, plant, music, rishta, ilgir.**KIRISH**

Xalq tabobatida aholining mashg'ulot turi, hududning hayvonot va o'simlik dunyosi, mintaqaga xos kasallik turlari kabi jihatlar davolash an'analarining mintaqaviy xususiyat kasb etishida muhim omil sanaladi. Mintaqaviy xususiyatlarda o'lkaga xos kasalliklar va ularni davolashning mahalliy usullari, tabiblarning sohalar bo'yicha ixtisoslashuvi hamda ixtisosliklar doirasida amal qilinadigan qoidalar, tekislik va tog'-tog' yonbag'rida istiqomat qiluvchi aholining tibbiy qarashlari muhim ahamiyat kasb etgan.

**TADQIQOT METODOLOGIYASI**

Mazkur maqolani yozishda mavzuga doir tarixiy manbalar tahlili amalga oshirildi hamda tarixiy tizimlilik, xronologik yondashuv hamda analiz va sentez usullaridan foydalilanigan.

## TARIX

## MUHOKAMA

*Davolashga aholini mashg'ulot turning ta'siri.* XIX – XX asr boshlarida aholining asosiy mashg'uloti ekin-tikinchilik, chorvachilik va hunarmandchilikdan iborat edi va o'z navbatida bu mashg'ulotlar yana kichik mayda tarmoqlarga, tiplarga bo'lingan. Har bir tarmoqning usuli va mehnat sharoiti natijasida aholi orasida hududiy, kasbiy va mavsumiy kasalliklar, ularni davolashning mintaqaga xos yo'llari shakllangan. Jumaladan, asosan shaharlarda joyning cheklanganligi sababli hunarmandchilik ustaxonalariga ajratilgan joyning kichikligi natijasida hunarmandlar ishlaydigan xona zax, shifti past va tor bo'lgan. Ustani uzoq vaqt bir yerda qimirlamay o'tirishi va havoni yaxshi aylanmasligi tufayli ularda nafas yo'li kasalliklari va bod, oyoq og'rig', suyak-bo'g'im xastaliklar uchragan[13]. Dehqonlarda esa yetishtiradigan ekin turidan kelib chiqib suv kechishi, jaziramada va namgarchilikda ham ishlagani uchun ko'proq mavsumiy kasalliklarga chalingan. Shu tariqa ish tartibi, faoliyat joyi hamda harakat ko'lamiga qarab kasb bilan bog'liq xastaliklar shakllangan. Natijada, oyoq og'rig'i, et uvishishi, qon yaxshi aylanmasligi kabilar hunarmand va boshqa qimirlamay ishlovchi aholining kasaliga aylandi. Dehqon va chorvadorlar orasida tashqi ta'sir oqibatida lat yeyish, sinish, chiqish, tana a'zolarini shamollashi va ayrim hollarda hayvonlardan kasalliklarni yuqtirish holatlari ko'proq uchragan. Birgina suyak-bo'g'im kasalliklarni davolashda chorvadorlar yangi so'yilgan qo'y terisinisovumasdan oldin bemorning tanasi 5-6 soatga o'rалган. Teri butun suyak va bo'g'imlarni qizdirib, yallig'lanishni olgan va suyaklarni mustahkamlagan[26:91]. Bu kabi kasalliklarni hunarmand va dehqonlar issiq buloqqa tushish, qumga ko'mish, tanaga qizdirilgan guvala, g'isht qo'yish hamda o'choq yoki tandirga solish kabi usullar bilan bartaraf etishgan.

Aholi bu kabi muntazam kuzatiladigan kasalliklarni davolashda o'zları yetishtirgan mahsulotning xususiyatlaridan foydalangan. Masalan, bu davrda chorvadorlar o'pka, tomoq, oshqozon og'rig'i va ovqat hazm qilish, kamqonlik bilan bog'liq kasalliklarni davolashda qimiz, qumron va boshqa sut mahsulotlarini iste'mol qilgan[27:46-51]. Dehqonlar esa poliz mahsulotlari – turp, sholg'om va boshqalarni asal bilan aralashtirib iste'mol qilgan. Qon ko'paytirihda ham rezavor mevalardan foydalangan. Bundan tashqari lat yegan qo'l va oyoq barmoqlarini davolashda piyojni cho'qqa ko'mib, pishgandan so'ng shikastlangan barmoqqa kiydirib davolashgan. Yoki, qishda chorvadorlar ko'proq tuzlangan, qotirilgan go'shtni iste'mol qilgan va buning natijasida ularning ovqat hazm qilish jarayoni buzilgan. Davo yana o'sha chorva mahsuloti - qatiq, qimiz va boshqa sut mahsulotlari bo'lib, ular orqali tanadagi muvozanat qayta tiklangan[7:72]. Dehqonlar yoki boshqa o'troq aholi esa bunday xastaliklarni davolashda o'simlik ildizi, quritilgan mevalarni qaynatib ichgan[11:478]. Teri kasalliklarni davolashda (*masalan chipqon, ko'z yara, ko'k yara va h.k.*) chorvadorlar yaraning ustiga qo'y yog'i (dumbasini) xomligicha bog'lab muolaja qilgan bo'lsa[20:98], dehqonlar tikanli o'simlikning (ko'ztikan, jangal) ko'sagini kuydirib moy bilan aralashtirgan holda yarani ko'ziga surtishgan. Yana shunday farq birinchi tibbiy yordam – qonni to'xtatishda uchraydi. Chorvador aholi kesilgan yoki qon oqayotgan a'zoga kuydirilgan kigiz, tamaki, yog'ni surib qonni to'xtatgan bo'lsa[6:53], dehqonlar un yoki qozonni qora kuyasini, surishgan[9,19].

Azaldan Turkiston o'lkasida yuqumli kasal tarqalganda, ko'chmanchi aholi o'zi yashab turgan ovulni tashlab yangi joyga ko'chib o'tishgan. Kasalni chilli qoidalari bo'yicha alohida o'tovda saqlashgan[6:53]. O'troq aholi ham kasalga chalingan kishilarni idishlari hamda xonasini alohida qilish barobarida yashab turgan uyni tutunga to'ldirib zararsizlantirgan.

Bunday davo usuli empirik bilimlar natijasi bo'lib, aholi kundalik turmush va mashg'ulotda ishlataidigan vositalarning tibbiy xususiyatlaridan foydalanishga intilgan. Oqibatda shu jihatlar milliy tibda davolashning mintaqaviy shakllariga asos bo'lgan.

*Tabiiy muhitning omili.* Hududning geografik joylashuvi ham milliy tib an'analarini mintaqaviy xususiyatlariga sezilarli ta'sir qilgan. Aholi o'zini o'rab turgan muhitdan kasalliklarga davo istagan. Chunki kasallikning yuzaga kelish sababi ham o'zini o'rab turgan tabiat bilan bog'liq ekanligiga ishongan. Kasalni davolashdagi mintaqaviy xususiyatlarga e'tibor bersak, tog' va tog'oldi hududlarda yashovchi aholi shu yerdagi tabiiy buloqlar, tuzli g'orlar, ko'llar va boshqa ma'danlarning shifobaxsh xususiyatlaridan davolashda foydalangan[10:166-167, 22]. Farg'ona vodiysi, Toshkent viloyati atroflarida aholi bod, bo'g'inlar va boshqa tana a'zolari shamollaganda buloqlar, ko'llar va tuz g'orlaridan foydalangan. Bundan tashqari tuzli suvda cho'milishning sog'lom

tanaga ham foydali jihatlarini yaxshi anglashgan[16:211]. Hatto mustamlakachi davlat ham o'z askarları va hukumat a'zolarining sog'lig'ini tiklashda ushbu tabiiy davo o'choqlariga jo'natgan[3:44]. Tekislikda yashovchi ya'ni Zarafshon vohasi aholisi esa issiq qum, tuproqdan foydalangan. Hunarmandlar yoki o'tirib ishlovchi boshqa kasb egalari yoz oylarida cho'llarga chiqib tanalarini qumga ko'mishgan. Ya'ni, insonning kasali va davolash usullari o'xhash bo'lgani bilan davo bo'ladijan unsur ikki xil edi. Aynan shu holat tibning hududiy o'ziga xoslik kasb etishiga tabiiy muhitning ta'sirini ko'rsatadi.

Tabiiy muhitning yana bir xususiyati o'sha yerga xos o'simlik va hayvonot turlarida aks etadi. Toshkentlik tabib Bositxon ibn Zohidxon Shoshiy aytadiki, ayrim hududlarda shunday xosiyat bo'ladiki ba'zi dorilar bu yerda ta'sir qilsa, boshqa yerda bu darajada kuchini ko'rsatmaydi[5:16]. Chunki aholi o'zini o'rabi turgan tabiatning foydali va zararli jihatlariga ko'nikkan, dorivorlarning ayrim salbiy ta'siriga qarshi tanasida himoya omili shakllangan. Salomatlikni asrashda muhit va iqlimning mintaqaviy ahamiyat kasb etishi turar joylar misolida ham ko'zga tashlanadi. Jumladan, o'lkaning janubiy mintaqasida iqlimining keskinligi insonlar salomatligiga turli darajada ta'sir qilgan. Buni oldini olish maqsadida imorat devorlarining eni qalin (70-120 sm) qurilgan va bu yo'l bilan qish va yoz oylarida mu'tadil haroratni saqlashga intilishgan[2:229-230]. Shuningdek, hovuz yoki suv saqlaydigan inshootlar orqali hovlida past haroratni saqlashgan. Shimoliy hududda ham iqlimning quruq va keskinligi tufayli binolarni qurishda havo aylanishini ta'minlash muhim edi. Buning uchun ustalar kichik derazalarni (tuynuklar) qarama-qarshi shaklda qurban. Issiq havo tepada va sovuq havo pastda bo'lishi sabab xona shiftidagi havoni aylanishiga ahamiyat berishgan[8:61]. Shuningdek, uy oldini baland ayvonli qilib qurish ham yoz fasilda quruq issiq havoni ayvon ichida aylanib to uyga kirguniga qadar ma'lum haroratgacha pasayishiga xizmat qilgan. Iqlim va muhitning salomatlikka ta'siri sabab inson uyi, ish joyi, faoliyat yuritadigan maydoni (*daladagi chaylalar, mavsumiy foydalaniladigan cho'pon uylari va h.k.*) kabi asosiy vaqt o'tadigan muhitni qurishda tibbiy jihatlarni inobatga olgan. Ya'ni, imoratni loyihalashtirish va qurish bilan bog'liq an'analar salomatlikni saqlash g'oyasi ustiga qurilgan.

*Kasbiy madaniyatni mintaqaviy jihatdagи o'rni.* Turkistonda sog'liqni saqlash amallari jamoaviy an'analar va kasbiy qoidalar asosida ham tartibga solingen. Jamoaviy tibbiy an'analar ma'lum shaxsga emas umumjamoa salomatligini saqlashga qaratilgan hamda unga aloqador kasb egalariga qat'iy talablar qo'yilgan.

Jamoaviy qoidalarda salomatlik madaniyatini aks etishiga to'xtaladigan bo'lsak, turkistonliklar fikriga ko'ra qabriston yerlari "nopok" hisoblanib, eski qabristonlarning o'rni qirq yildan so'ng (ya'ni qabristonga marhumlarni qo'yish to'xtatilganiga qirq yil bo'lganda) buzilgan va u yerga dastlab poliz ekinlari ekilgan. Polizning birinchi yilgi hosili yig'ishtirib olinmagan[25:129]. Keyingi yildan bu yerda dehqonchilik qilish yoki turar joy binolarini barpo qilish mumkin bo'lgan. Dehqonlardan ziroatkor yerga o'limtiklarni ko'mmaslik, hosilni saqlashda chirigan yoki zarar yetgan qismini iste'molga chiqarmaslik talab etilgan. Mirob, suvchilar ariqlarni qazishda suv tabiiy iqlim me'yorini ushlashi uchun aholi yashash joylarini to'liq qamrab olishiga e'tibor qaratgan. Bundan tashqari svjni toza saqlanishini nazoratda ushlashi, isrof qilishni oldini olishga e'tibor qaratishgan.

Chorvadorlarda esa qabristonlar va shu kabi o'limtiklar ko'milgan joylarda, axlat yig'iladigan hududlarda chorvani boqmaslik, harom o'lgan hayvon go'shtini iste'molga bermaslik kabi qoidalar bo'lgan.

Qassoblar esa hayvon so'yishda faqat sog'lom va tetik mollarni olishi, hayvonni tanasidan qonni chiqarib tashlashi, dinda harom qilingan tana qismlarni (*bezlar, jinsiy a'zolari, zahar yig'iladigan ichki a'zolar va qurtlagan yoki zararlangan a'zolar*) ajratish, qon va boshqa olib tashlangan joylarni chuqur qazib, ko'mish[17:163] qat'iy belgilangan.

Qoidaga ko'ra har bir sartaroshning ikki jamlanma jihozlari bo'lgan. Biri sog'lom mijozlar uchun, ikkinchisi teri yoki badanida kasalligi bor kishilar uchun ishlataligan. Shuningdek, ularga olingan soch va soqollarni to'plab qabristonga ko'mish tavsiya etilgan[1:44]. Shaxsiy, kasbiy va jamoaviy tozalik qoidalari jamiyatning salomatlik madaniyatini ko'rsatib beruvchi omil bo'lib, odatda bu jihatlar milliy tarbiya orqali insonlar ongiga singdirilgan. Bunga amal qilmaslik yoki beparvo bo'lish jamiyat a'zolari tomonidan ma'lum davralarga qo'shmaslik, yomon nom, laqab bilan atash kabi "usullar" bilan jazolangan.

## TARIX

Joylardagi hukumat a'zolari bozor, karvonsaroy va shu kabi aholi gavjum inshootlarni yaratishda yopiq binolarda havo aylanishini hisobga olishi, sotiladigan mahsulotlarni turiga ko'ra rastalarga ajratishi, karvonsaroylar va shu kabi musofirlar to'xtaydigan joylarda tabib uylarini tashkil qilish, yuvinishi uchun sharoit yaratish va yuqumli kasalliklarni oldini olish uchun isiriq va boshqa giyohlarni tutatib kasalni kesishni tashkil qilgan. Bundan tashqari bozorlar va turli savdo rastalarida sotiladigan mahsulotlar, jumladan go'sht mahsulotlarini yaroqliligini tekshiradigan xodimlar faoliyat yuritgan[12:699-701].

O'lkada salomatlikni saqlashga doir qoidalar jamiyatning turli toifasining kasbiy majburiyatlarida va jamoa ichida amal qilinishi lozim bo'lgan odatlarda aks etgan. Bu qoidalar bevosita jamiyatning o'zi tomonidan nazoratga olingan. Biror kasb egasi o'z sohasini haqiqiy mutaxassisini bo'lishi uchun kasb sirlaridan tashqari ijtimoiy hayot normalarini, jumladan sohanini insonlar salomatligiga ta'sirini ham bilishi zarur edi.

*Mintaqaviy xususiyatlarni tabiblar faoliyatida aks etishi.* Tabiblar bemorning holati va kasallik turiga qarab mijozga alohida yondashgan hamda muolaja shaklini belgilagan. Ya'ni bir xil kasallik bilan og'rigan har bir bemorni mijozidan kelib chiqib davolash usullarini qo'llashgan. Ayrim xastaliklar uzoq va muntazam parvarish bilan davolangan hamda bu tabibdan katta mahoratni talab qilgan. Jumladan, XIX asrda Qo'qon xoni Umarxon yo'tal va bezgak bilan kasallanib, tez-tez xushidan ketishi kuzatilganda, tabiblar ikki oy davomida kasalga qarshi kurashishgan[24:347]. Bu kasal o'pkani plevra qavati bilan bog'liq xastalik bo'lib, uni aniqlash va davolash bilim hamda katta tajribaga asoslangan. Bundan ko'rindiki, Qo'qon xonligida faoliyat yuritgan tabiblar asosan hududning nam iqlimi tufayli kelib chiqadigan nafas yo'li xastaliklarni davolashda mohir bo'lishgan.

Xiva tabiblarini ham alohida mintaqaviy davolash usullari bor edi. Xiva tabiblari yaralarni giyohlar bilan davolashda ustasi farang bo'lib, boshdan qon olishga katta ahamiyat berishi manbalarda alohida qayd etilgan[18:138]. Bundan tashqari hududga xos xususiyat – kasalni musiqa yordamida muolaja qilish bo'lib, bunda bemorni ruh, asab bilan bog'liq xastaliklari davolagan. Jumladan, Muhammad Rahimxon II (1845-1910) saroyida faoliyat yuritgan Bobojon Tarroh musiqa bilan shug'ullanishiga sabab bo'lgan holatni quyidagicha keltirgan: "Utar tabib bir kuni bizga ko'zingizning oqi sarg'ayibdi, tezda sizlar sholixuliyo (melanxoliya), jinni bo'lib qolasiz dedi. Men buning iloji nima, deb so'radim. Iloji shuki, soz mashq etasizlar - dedi u. Shundan keyin o'n besh yil mutasil Komil devonning boqchasida soz mashq ettik..."[4:89]. Yoki Muhammadyusuf Bayoniy qayd etishicha, Muhammad Rahimxon o'lkaza ruslar bo'stirib kelgandan so'ng tushkunlik kayfiyatiga berilib xonanishin bo'lib qoladi va xonni bundan forig' etish maqsadida mansabdorlar musiqa kechalari uyuştirishni taklif qiladilar[15:256]. Xiva tabiblari inson ongidagi o'zgarishlar oqibatida jismoni xastaliklarni yuzaga kelishini anglagan holda, bu o'zgarishlarni ohang, navo bilan bartaraf qilgan. Musiqani shifo beruvchi ta'sir kuchidan foydalanih ruhiyatni bu usulda davolash faqatgina mintaqaga xos edi. Buxoro tabiblari esa rishtani davolashda mohir edilar. Jumladan, Mirzo Siroj Hakim 300 ga yaqin rishtaga chalingan bemorlarni davolagan[14]. Sadriddin Ayniy ham o'z xotiralarida bu kasalni tuzatuvchilar Buxoroning Devonbegi labihovuzi atrofida qo'nim topganini va ko'pchilik shu yerdan davolanganini qayd etgan[21:232].

Aholining mashg'ulot turidagi farqlar tabiblarning faoliyatida va davolash usullarida ham o'zgachalikni yuzaga keltirgan. Jumladan, Farg'ona vodisi va Zarafshon vohasida "ilgir (girgir)" nomi bilan ataluvchi tabiblar yosh bolani tomog'ida meva po'chog'i, danagi yoki boshqa yot narsani olish bilan shug'ullangan. Xorazmda esa bu tabiblar "cho'pchi" deb atalgan va ko'proq bolani tomog'ida qolgan baliq qiltanog'ini olish bilan shuhurat topgan[23:56]. Bu davrda kishilarning iste'mol mahsulotlari kasallikni ayrim hududiy ko'rinishlarini yuzaga keltirgan.

**XULOSA**

Xulosa o'rnida aytish joizki Turkiston o'lkasida davolanish va salomatlikni saqlashga qaratilgan tadbirlarning mintaqaviy xususiyat kasb etishida aholini mashg'ulot turi hamda yashash sharoiti ko'proq rol o'ynagan. Tog'li va tekislikda yashovchi aholini tibbiy bilimlari dagi tafovutlar hamda chorvador, hunarmand, dehqonlarning kasbiy faoliyati bir-biridan farqlangani kabi salomatlikka doir qarashlarida ham turfa xillik yuzaga kelgan.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI**

- Аллаяров Х. Некоторые данные из узбекской народной гигиена // Медицинский журнал Узбекистана. 1981. № 6.

2. Асадов Д. ва бошқ. Қадимги Термиз тиббиёти // O'zbekiston tibbiyot jurnali. 2004. № 1-2.
3. Ахмедова Р. Туркистон табиий ресурсларидан фойдаланишнинг илмий йўлга қўйилиши // O'tmisgazar. 2023. № 1.
4. Бобоҷон Тарроҳ Азизов – ходим. Хоразм навозандалари: XIX аср охири XX аср бошларида Сайд Муҳаммад Раҳимхони соний даврида яшаган шоирлар ҳақида эсдаликлар. – Тошкент: Фофор Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1994.
5. Боситхон ибн Зоҳидхон Шоший. Қонуни Боситий. – Тошкент: Tiron zamin ziyo, 2011.
6. Джунушалиева Г. Культурная политика государства в Кыргызстане: этапы и пути реализации (вторая половина XIX в. -конец 30-х гг. XX в.): дисс. для кандидатов наук. – Бишкек, 2005.
7. Динашева Л. И др. Лечебные учреждения города Туркестана и оказание медицинских услуг в конце XIX – в начале XX века // Отан тарихы. 2022. № 1.
8. Дурдиева Г., Бағбеков Х. Хоразм воҳасида миллӣ уй-жой қурилишининг инсон саломатлигига таъсири // “Исмоил Журжонийнинг “Заҳираи Хоразмшоҳий” асари ва унинг Марказий Осиёда тиббиётни ривожлантиришдаги аҳамияти” номли илмий-амалий конференция материаллари. – Хива, 2008.
9. Қосимов С. Ўлмас табобат // Сиҳат-саломатлик. 1991. № 2.
10. Леонов Г. Соленые озера Самаркандинской и Сырдарьинской областей / Сборник материалов для статистики Сырдарьинской области. – Ташкент, 1896.
11. Материалы для статистики Туркестанского края. Вып II. – СПб., 1873.
12. Махсумов М. Развитие народной медицины и вопросы гигиены в период правления узбекских ханов // Молодой ученый. 2016. № 12.
13. Мирзо Сироҳ Ҳаким. Ҳифз-ус-сихат // Бухоройи шариф. 1912 йил, 26 март.
14. Мирзо Сироҳ Ҳаким. Эълон // Бухоройи шариф. 1912 йил, 5, 7 июл.
15. Муҳаммадиусуф Баёний. Шажарайи Хоразмшоҳий. – Тошкент: Камалак, 1991.
16. Муҳаммад Вафо Карманагий. Тұхфат үл-хоний. Муқаддима, таҳия матн, нұсхабадал, таълиқот ва феҳристхой Жамшед Чұразода ва Нурулло Фиёсов. – Хұчанд: Нури маърифат, 2017.
17. Патхиддинов Р. XIX аср охири-XX аср бошларида Туркистонда соғлиқни сақлаш тизими анъанавийлик // НамДУ Илмий ахборотномаси. 2020. № 4.
18. Путешествие в Туркмению и Хиву в 1819 и 1820 годах, гвардейского генерального штаба капитана Николая Муравьевса, посланного в сии страны для переговоров. Часть II. – Москва, 1822.
19. Раджабова М. XVIII-XIX асрларда Туркистон ўлкасида анаънавий тиббиёт хизматларининг кўрсатилиши / [nuqtainazar.uz/archives.02.03.2019](http://nuqtainazar.uz/archives.02.03.2019);
20. Саадабаева Г. История становления здравоохранения на территории Кыргызстана // Медицина Кыргызстана. 2013. № 2.
21. Садриддин Айний. Эсдаликлар. 7-жилд. – Тошкент: Тошкент, 1966.
22. Сакирич П. Заметка о Хазрет-Аюбских минеральных источниках // [Туркестанские ведомости](#). – 1882 год. №30;
23. Сафаров К., Фойибов М. Хоразм Маъмун академиясида ҳалқ табобатини ўрганиш // “Маъмун академияси ва тиббиёт” номли анжуман материаллари. – Урганч, 2005.
24. Худоёрхонзода. Анжум ат-таворих. – Тошкент: Fan va texnologiya, 2014.
25. Хўжахонов И. Фарғона водийси қишлоқ аҳолиси анъанавий турар жойларининг этноҳудудий ҳусусиятлари (XIX аср охири – XX аср бошлари): т.ф.н учун дисс. – Тошкент, 2007.
26. Ширинова Н. XIX асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошларида Туркистонда ҳалқ табобати тарихи: т.ф.ф.д учун дисс. – Тошкент, 2024.
27. Яғмин А. Киргиз-кайсацкие степи и их жители. – СПб., 1845.